“ADOLAT”
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=310

2025-yil
2-son
iyul
ISSN 3093-8546



Akademik erkinlik va uni konstitutsiyaviy kafolatlashning ahamiyati: qiyosiy- huquqiy tahlil

Umid Sobirov,
Toshkent davlat yuridik universiteti Konstitutsiyaviy huquq kafedrasi o‘qituvchisi
Huquqshunos
e-mail: iamumidsobirov@gmail.com

Аннотация. Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan oliy ta’lim tashkilotlarining akademik erkinligi tushunchasi va uning ahamiyati, shuningdek uni konstitutsiyaviy darajada himoya qilish zarurati xorijiy mamlakatlar konstitutsiyalari misolida yoritilgan. Akademik erkinlikning tarixiy rivojlanish bosqichlari, unga oid xalqaro huquqiy hujjatlar hamda yetakchi olimlarning ilmiy qarashlari tahlil qilingan. Shuningdek, akademik erkinlikning O‘zbekistondagi bugungi holati chuqur o‘rganilib, mavjud muammolarni bartaraf etish va sohaga oid konstitutsiyaviy mexanizmlarni takomillashtirish bo‘yicha aniq taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

Калит сўзлар. Akademik erkinlik, konstitutsiyaviy huquq, oliy ta’lim, xalqaro huquqiy hujjatlar, ilmiy erkinlik, demokratik qadriyatlar, qiyosiy huquq, O‘zbekiston Konstitutsiyasi

Аннотация. В данной статье рассматриваются понятие и значение академической свободы, закреплённой в Конституции Республики Узбекистан, а также обосновывается необходимость её защиты на конституционном уровне на примере конституций зарубежных государств. Анализируются исторические этапы развития академической свободы, международные правовые документы, а также научные взгляды ведущих исследователей. Проведена оценка текущего состояния академической свободы в Узбекистане, выработаны конкретные предложения и рекомендации по устранению существующих проблем и совершенствованию конституционных механизмов в данной сфере.

Ключевые слова. Академическая свобода, конституционное право, высшее образование, международные правовые акты, научная автономия, демократические ценности, сравнительное право, Конституция Узбекистана

Annotation. This article explores the concept and significance of academic freedom as enshrined in the Constitution of the Republic of Uzbekistan, and highlights the necessity of its protection at the constitutional level by

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

examining examples from the constitutions of foreign countries. It analyzes the historical development of academic freedom, relevant international legal instruments, and scholarly perspectives. The current state of academic freedom in Uzbekistan is critically assessed, and specific proposals and recommendations are put forward to address existing challenges and improve constitutional mechanisms in this area.

Keywords. Academic freedom, constitutional law, higher education, international legal instruments, scholarly autonomy, democratic values, comparative law, Constitution of Uzbekistan

Ilm-fan va ta’lim har qanday jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri sanaladi. Ular nafaqat iqtisodiy va texnologik yutuqlarga, balki inson huquqlari, jumladan, so‘z erkinligi va ta’lim olish huquqining ro‘yobga chiqishiga ham xizmat qiladi. Bu jarayonda ayniqsa akademik erkinlik muhim o‘rin tutadi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining maorif, fan va madaniyat masalalari bilan shug‘ullanuvchi tashkilotiga (UNESCO) ko‘ra, **akademik erkinlik** – bu oliy ta’lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot tashkilotlarining talabalari, ilmiy xodimlari va professor-o‘qituvchilari o‘z missiyalarini bajarishlari uchun zarur bo‘lgan tadqiqot erkinligi tamoyillaridir[1].

So‘nggi yillarda global miqyosda yuz berayotgan siyosiy va madaniy siljishlar, shuningdek, axborot oqimining keskin ortib borishi mazkur erkinlikning turli shakllarda cheklanishi bilan kechmoqda. Hatto demokratik tizimlarga ega ayrim davlatlarda ham ilmiy izlanishlar erkinligiga bevosita yoki bilvosita to‘siqlar qo‘yilayotgani kuzatilmoqda[2]. Bu holat akademik erkinlikning huquqiy tabiatini, xususan, uning konstitutsiyaviy asoslarini chuqur o‘rganish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Ushbu maqolada akademik erkinlik tushunchasining tarixiy rivojlanish bosqichlari, uning konstitutsiyaviy huquq doirasida tahlili, turli mamlakatlar konstitutsiyalarida qanday kafolatlanayotgani hamda xalqaro tajriba asosida qaysi yondashuvlar eng samarali ekani o‘rganiladi.

Tadqiqot obyekti nuqtayi nazaridan, dastlab ilmiy manbalarga e’tibor beradigan bo‘lsak, akademik erkinlik, shuningdek, mazkur huquqning konstitutsiya darajasida mustahkamlash masalalari ko‘plab olimlarning muhokama markazida bo‘lgan. Xususan, Ronald Dvorkin [3] hamda Kass Robert Sanstein (Cass Sunstein) [4] kabi huquqshunos olimlar o‘z asarlarida akademik erkinlikning demokratik yaxlitlik va intellektual taraqqiyotni saqlab qolishda konstitutsiyaviy ahamiyatini ta’kidlab kelmoqdalar.

Metodologiya

Maqolada belgilangan maqsadlarga erishish uchun izlanish jarayonida dialektika, tarixiy-mantiqiy hamda tizimli tahlil, qiyosiy-huquqiy analiz va sintez kabi metodlardan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalari

Akademik erkinlik zamonaviy universitet tizimining asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi. Bu tushuncha o‘zining

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

shakllanishida murakkab tarixiy bosqichlarni bosib o‘tgan bo‘lib, har bir davrda uning mazmuni, huquqiy asoslari va institutsional yondashuvlari o‘zgarib borgan. Shu jihatdan ushbu huquqning rivojlanish tarixini asosiy to‘rt bosqichda tahlil qilish mumkin.

Ilk shakllanish davri (X–XII asrlar)

Bu davr Yaqin Sharq, Markaziy Osiyo va Shimoliy Afrikada shakllangan ilk universitetlar, shu jumladan, Al-Azhar (Misr) yoki Nizomiya madrasalari (Bag‘dod) faoliyati bilan belgilanadi[5]. Ushbu ilmiy markazlarda ilmiy maktablararo farqlar, yondashuvlar xilma-xilligi va ma’rifiy bag‘rikenglik kuzatilgan. Garchi bu davrda “akademik erkinlik” atamasi huquqiy va siyosiy diskursda mavjud bo‘lmagan bo‘lmagan, lekin amaliy jihatdan ilm-fan nisbatan mustaqil yo‘nalishda rivojlangan. Shunga qaramay, mazkur erkinlik ko‘proq de-fakto tusda bo‘lib, institutsional kafolatlar bilan mustahkamlanmagan edi.

Cheklovlar davri (XIII–XVIII asrlar)

Yevropa universitetlarining o‘rta asrlardagi taraqqiyoti ko‘p jihatdan katolik cherkovi va qirollik hokimiyati bilan bog‘liq bo‘lgan. Bu davrda universitetlar nisbiy avtonomiyaga ega bo‘lgan bo‘lgan, ammo ilmiy faoliyat katta ideologik cheklovlar ostida olib borilgan. Ilmiy qarashlar ko‘pincha diniy aqidalar bilan mos kelishi lozim edi. Bu bosqichda akademik erkinlik tushunchasi amalda siqilib, mustaqil tafakkur xavfli deb qaralgan. Bu holat, xususan, inkvizitsiya, Galileyning taqib qilinishi[6] yoki dogmatik ta’limotlarning ustuvorligi orqali o‘z aksini topadi. Shu bois bu davrni erkinlikka qarshi reaksion bosqich sifatida baholash mumkin.

Nazariy asoslash davri (XIX asr): Gumboldt modeli va zamonaviy akademik erkinlikning shakllanishi.

XIX asr boshlarida Germaniyada Vilgelm fon Gumboldt tomonidan ilgari surilgan ta’lim islohotlari orqali akademik erkinlik ilk bor nazariy asoslangan tushuncha sifatida namoyon bo‘ldi. U ta’lim olish (Lernfreiheit) va dars berish (Lehrfreiheit) erkinligini bir butun tizim sifatida ilgari surdi. Bu yondashuv zamonaviy universitetlar uchun tamal toshini qo‘ydi, chunki u ilm-fanni davlatdan va iqtisodiy manfaatlardan nisbatan mustaqil ravishda rivojlantirish g‘oyasini ilgari surdi. Shunga qaramasdan, bu model ham siyosiy notinchlik yoki avtoritar rejimlar (masalan, Uchinchi Reyx davri) davrida izdan chiqqan[7].

Huquqiy institutsionalizatsiya davri (XX asr – hozirgi davr): erkinlikning xalqaro va milliy kafolatlari.

XX asr boshlaridan boshlab, ayniqsa AQShda akademik erkinlik institut sifatida rivojlandi. 1915-yilgi AAUP deklaratsiyasi[8] orqali bu tushuncha huquqiy va etik mezonlarga aylantirildi. Ushbu tamoyillar 1940-yildagi “Academic Freedom and Tenure” bayonoti orqali yanada mukammallashdi. Bu hujjat akademik erkinlikni uch yo‘nalishda (tadqiqot, o‘qitish va fikr bildirish erkinligi) kafolatlashni nazarda tutadi. Bugungi kunda bu model xalqaro miqyosda tan olingan bo‘lib, ko‘plab universitetlar uni o‘z ichki siyosatiga

implementatsiya qilgan.

Hozirgi davrda ham akademik erkinlik har bir mamlakatning ilm-fan sohasidagi asosiy huquqlardan biri hisoblanib, sifatli oliy ta’limni ta’minlashning ajralmas omili bo‘lib kelmoqda. Bu tushuncha faqat erkin fikr bildirish huquqi bilan cheklanmay, balki ilmiy izlanishlar, bahsli mavzularni muhokama qilish va mustaqil o‘quv jarayonini tashkil etish huquqini ham o‘z ichiga oladi. Shu jihatdan olib qaralganda, akademik erkinlikning huquqiy kafolatlash muhim hisoblanadi.

Xo‘sh, shu kunga qadar qaysi mamlakatlar o‘z qonunchiligida akademik erkinlikni alohida norma sifatida mustahkamlagan hamda mazkur huquqni konstitutsiya darajasida kafolatlashning ahamiyati nimalarda namoyon bo‘ladi?

Xalqaro ilmiy kengash (International council for science)ning ma’lumotlariga ko‘ra, bugungi kunda dunyoning 90 dan ortiq davlatlari konstitutsiyalarida fan va ilmiy-tadqiqot faoliyati erkinligi kafolatlangan. Ularning 28 tasida esa davlatga ushbu erkinlikni ta’minlash bo‘yicha bevosita majburiyat yuklovchi normalar ham mavjud. Tahlil asosida xorijiy konstitutsiyalarda akademik erkinlikni tartibga solish yondashuvlarini quyidagi asosiy uch guruhga ajratish mumkin:

I. Mustaqil huquq sifatida bevosita konstitutsiyada mustahkamlash

Bu guruhga kiruvchi davlatlar akademik erkinlikni alohida konstitutsiyaviy huquq sifatida tan oladi. Ular mazkur huquqni san’at, fan va ta’lim sohasidagi mustaqil faoliyat doirasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri kafolatlaydi:

Armaniston (2005): 40-modda – “Har bir shaxs ilmiy va ijodiy erkinlikka ega.”

Germaniya: Asosiy qonun, 5-moddasi, 3-qism – “Fan, tadqiqot va o‘qitish erkin.”

Italiya (1947): 33-modda – “Respublika san’at va fan erkinligini kafolatlaydi. Ular erkin o‘qitiladi.”

Rossiya (1993): 44-modda – “Shaxsga ilmiy, adabiy va ijodiy erkinlik kafolatlanadi”.

Braziliya: 206-modda – “Ta’lim o‘rganish, o‘qitish, tadqiqot va bilimni ifodalash erkinligiga asoslanadi.”

II. Akademik erkinlikni boshqa huquqiy institut tarkibida tan olish

Ushbu modelda akademik erkinlik bevosita tilga olinmaydi, biroq so‘z erkinligi, ta’lim olish huquqi yoki ijodiy erkinlik doirasida huquqiy himoya ostiga olinadi.

Masalan, AQSh konstitutsiyasida akademik erkinlik to‘g‘ridan-to‘g‘ri belgilanmagan. Biroq Konstitutsiyaga birinchi tuzatish (First Amendment)ning so‘z erkinligi bilan bog‘liq qismi sud amaliyotida akademik erkinlikni ham o‘z ichiga oluvchi norma sifatida talqin qilinadi (masalan, Keyishian v. Board of Regents)[9].

Finlyandiya: 16-modda – Akademik erkinlik ta’lim olish huquqining tarkibiy qismi sifatida tan olingan.

Xitoy (1982): 47-modda – “Fuqarolar ilmiy tadqiqotlar bilan shug‘ullanish erkinligiga egadirlar.”

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Vetnam (1992): 60-modda – “Fuqarolar ilmiy va texnik tadqiqot olib borish huquqiga ega”.

III. Akademik erkinlikni oliy ta’lim doirasida e’tirof etuvchi konstitutsiyalar

Bu yondashuvda akademik erkinlik ta’lim sohasi bilan bog‘langan holda, aynan oliy ta’lim tashkilotlari doirasida konstitutsiyaviy huquq sifatida ifodalanadi. O‘zbekiston Respublikasini mazkur guruhga kiritish mumkin:

Jumladan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 51-moddasiga ko‘ra, “Oliy ta’lim tashkilotlari qonunga muvofiq akademik erkinlik, o‘zini o‘zi boshqarish, tadqiqotlar o‘tkazish va o‘qitish erkinligi huquqiga ega”[10] ekanligi belgilangan.

Bu norma orqali O‘zbekiston akademik erkinlikni alohida huquqiy institut sifatida tan olib, uni konstitutsiyaviy darajada mustahkamladi. Bu esa boshqa davlatlar tajribasi bilan qiyoslanganda zamonaviy va maqsadga muvofiq yondashuv hisoblanadi.

O‘z fikrini erkin bildirish huquqining tarkibiy qismi sifatida ta’kidlanadigan akademik erkinlikni konstitutsiyaviy darajada aniq belgilab himoya qilish demokratik qadriyatlarni saqlab qolish va siyosiy aralashuvning oldini olish uchun muhim hisoblanadi. Chunki, akademik erkinlik olimlar va ilmiy muassasalarga mustaqil tadqiqot olib borish, ochiq munozaralarni rivojlantirish hamda senzura yoki jazodan qo‘rqmasdan tanqidiy fikr yuritish imkonini beradi. Bu erkinlik nafaqat imtiyoz, balki demokratiyaning asosiy tayanchlaridan biridir.

Shu sababli, huquqshunos olimlar tomonidan akademik erkinlikning konstitutsiyada alohida belgilanishi alohida ahamiyatga ega deb e’tirof etiladi. Bu, eng avvalo, mazkur huquqning yuqori huquqiy maqomga ega bo‘lishini ta’minlaydi va shu orqali uni siyosiy manipulyatsiyalar, davriy hokimiyat almashinuvlari yoki ma’muriy cheklovlardan himoya qiluvchi mustahkam konstitutsiyaviy asosga aylantiradi. Bundan tashqari, ta’lim va ilm-fan sohasida uzoq muddatli barqarorlikni yaratishga, akademik muassasalarning mustaqilligini ta’minlashga va ular faoliyatining har qanday ortiqcha tashqi ta’sirdan xoli bo‘lishiga xizmat qiladi.

Biroq, akademik erkinlik bilan bog‘liq huquq va prinsiplarning konstitutsiya va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga kiritilishi uning to‘liq va har tomonlama amalga oshirilishini o‘z-o‘zidan kafolatlamaydi. Haqiqatan ham, akademik erkinlikning konstitutsiyaviy darajada e’tirof etilishi ushbu huquqning huquqiy maqomini oshiradi, biroq amalda uni to‘laqonli ta’minlash ko‘plab omillar, xususan, **sud hokimiyatining mustaqilligi, siyosiy tizimning ochiqlik darajasi, fuqarolik jamiyatining faolligi va jamiyatda demokratiya qadriyatlariga sadoqat darajasi** bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi.

Masalan, Academic Freedom Index (AFI), ya’ni Akademik erkinlik indeksi ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston 2024-yilda 0.29 ball bilan baholangan bo‘lib, bu ko‘rsatkich global miqyosda

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

nisbatan past darajadagi akademik erkinlikni aks ettiradi. Shu bilan birga, indeksda keltirilgan ayrim ko‘rsatkichlar bo‘yicha **ijobiy** dinamika ham kuzatilmoqda[11].

Xususan:

“Freedom to research and teach” (tadqiqot va o‘qitish erkinligi) – 1.77 ball;

“Academic exchange and dissemination” (ilmiy almashinuv va axborot tarqatish erkinligi) – 1.90 ball;

“Institutional autonomy” (muassasalarning mustaqilligi) – 1.55 ball;

“Campus integrity” (kampus daxlsizligi) – 1.72 ball;

“Academic and cultural expression” (akademik va madaniy ifoda erkinligi) – 1.33 ballni tashkil etgan.

Mazkur ko‘rsatkichlar, bir tomondan, konstitutsiyaviy va institutsional islohotlarning ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi, boshqa tomondan esa, akademik erkinlikni ta’minlash yo‘lida hali ko‘plab muammolar mavjudligidan dalolat beradi. Shunday ekan, akademik erkinlik faqat huquqiy hujjatlarda qayd etilgan qoidalar bilangina emas, balki ularning real amaliyotda to‘liq ishlashi, siyosiy iroda, huquq ustuvorligi va erkin fuqarolik jamiyati bilan uyg‘unlashgan taqdirdagina samarali kafolatlanadi.

Xulosa

Akademik erkinlik nafaqat oliy ta’lim muassasalari faoliyatining ichki jihati, balki jamiyatning demokratik rivojlanishi, huquq ustuvorligi va ijtimoiy barqarorligining ajralmas tarkibiy qismidir. Uni konstitutsiyaviy darajada mustahkamlash orqali davlat ilmiy muhitga nisbatan kafolatlangan betaraflikni ta’minlashi, akademik subyektlarning siyosiy bosimdan xoli faoliyat yuritishini kafolatlash imkonini yaratadi. Shu jihatdan, yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida “oliy ta’lim tashkilotlari qonunga muvofiq akademik erkinlik, o‘zini o‘zi boshqarish, tadqiqotlar o‘tkazish va o‘qitish erkinligi huquqiga ega” ekanligi bilan bog‘liq normaning kiritilishi alohida e’tiborga loyiq.

Chunki, ushbu norma akademik erkinlikni fundamental huquq sifatida konstitutsiyaviy maqomga ko‘tardi. Bu orqali davlat oliy ta’lim muassasalarining mustaqilligini tan olib, ularning siyosiy aralashuvdan xoli tarzda erkin faoliyat yuritishiga huquqiy asos yaratmoqda.

Shu bilan birga quyidagi jihatlarga e’tibor berish lozim:

Birinchidan, akademik erkinlikning konstitutsiyada mustahkamlanishi unga yuqori darajadagi huquqiy kafolat beradi. Biroq, ushbu kafolatning amalda to‘laqonli ta’minlanishi uchun mustahkam institutsional asoslar, sud hokimiyatining mustaqilligi va fuqarolik jamiyatining faolligi zarur. Shu bois, konstitutsiyaviy normaning real hayotga tatbiq etilishi huquqni qo‘llash amaliyoti va siyosiy-huquqiy madaniyat bilan chambarchas bog‘liqdir.

Ikkinchidan, oliy ta’lim muassasalarining o‘zini o‘zi boshqarish huquqi huquqiy mexanizmlar orqali aniq mustahkamlanmog‘i lozim. Bunga, xususan, oliy ta’lim muassasasi rahbarini (rektorni)

saylash, ilmiy faoliyatni moliyalashtirish, o‘quv dasturlarini mustaqil shakllantirish kabi elementlar kiradi.

Uchinchidan, O‘zbekiston hozirda *Academic Freedom Index (AFI)* reytingida 0.29 ball bilan baholanganiga qaramay, uning ayrim tarkibiy komponentlari bo‘yicha ijobiy o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Bu esa konstitutsiyaviy islohotlarni amaliyotga yanada kengroq tatbiq etish orqali akademik erkinlikni sifat jihatdan sezilarli darajada yaxshilash imkoniyati mavjudligini anglatadi.

To‘rtinchidan, konstitutsiyaviy norma faqat oliy ta’lim muassasalari ma’muriyati uchun emas, balki professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilar hamda talabalar erkinligi uchun ham qo‘llanilishi zarur. Shu maqsadda, talabalar va yosh olimlarning tanqidiy fikr bildirish, ilmiy tashabbus ko‘rsatish va xalqaro akademik almashinuvda faol ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirish muhim ahamiyatga ega.

Shunday qilib, akademik erkinlikning konstitutsiyaviy huquq sifatida mustahkamlanishi O‘zbekistonda huquqiy-demokratik jamiyat qurish yo‘lida muhim yutuqdir. Endilikda asosiy vazifa ushbu huquqni real hayotga izchil tatbiq etish va uning orqali ilm-fan, ta’lim va jamiyat taraqqiyotini ta’minlaydigan barqaror huquqiy-amaliy muhitni shakllantirishdir.

Iqtiboslar/ Сноски/References:

UNESCO, *Recommendation concerning the Status of Higher-Education Teaching Personnel* (11 November 1997) .

Norris, Pippa, Two faces of academic freedom: External and internal threats (June 06, 2025). Available at SSRN:

Dworkin, R. (1979). ACADEMIC FREEDOM. Philosophical Papers, 8(1), 1–10.

Sunstein, Cass R., Free Speech On Campus? Thirty-Seven Questions (and Almost As Many Answers) (December 23, 2023). Available at SSRN: https://ssrn.com/abstract=4674320 or

George Makdisi, *The Rise of Colleges: Institutions of Learning in Islam and the West* (Edinburgh University Press 1981).

Maurice A Finocchiaro, *The Galileo Affair: A Documentary History* (University of California Press 1989).

Shannon Dea, A brief history of academic freedom. (Dispatches on academic freedom). Available at SSRN:

American Association of University Professors (AAUP), *1915 Declaration of Principles on Academic Freedom and Academic Tenure* (1915)

Keyishian v. Board of Regents, 385 U.S. 589 (1967). Available at:

2023-yil 30-aprel kuni o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.

The State of Academic Freedom Worldwide.